

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN AKUSHERLIK
VA GINEKOLOGIYA FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu fan spetsifikatsiyasi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish va attestatsiyadan o‘tkazish test tizimi doirasida **Akusherlik va ginekologiya** fani o‘qituvchilarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), mazmun sohalari, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta‘minlash, talabgorlarning **Akusherlik va ginekologiya fani** bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

II. Me‘yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Akusherlik va ginekologiya

1. Ayol jinsiy a‘zolarining anatomiyasi va fiziologiyasi;
2. Fiziologik akusherlik;
3. Patologik akusherlik;
4. Ginekologiya;
5. Reproduktiv salomatlik.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Ayol jinsiy a'zolarining anatomiyasi va fiziologiyasi	Ayol jinsiy a'zolarining anatomiyasi va fiziologiyasi bilishi, hayz sikli, ayol chanog'i suyaklari, jinsiy garmonlar faoliyatini biladi.	27,5 %	11 ta
2	Fiziologik akusherlik	Homiladorlik fiziologiyasi, urug'lanish, homilaning taraqqiyot bosqichlarini, homilador ayol organizmidagi fiziologik o'zgarishlarni, homiladorlik diagnostikasini, homiladorlar gigiyenasini, parhezini biladi fiziologik tug'ruqni olib borish faoliyatini biladi, chilla davri fiziologiyasi va yangi tug'ilgan chaqaloq parvarishi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	27,5 %	11 ta
3	Patologik akusherlik	Homiladorlik bilan bog'liq kasalliklar, ekstragenital kasalliklarda homiladorlik va tug'ruqni kechishi, tor chanoqlar, abortlar, yo'ldosh anomaliyalari, akusherlikda qon ketish sababali, homilaning ko'ndalang va qiyshiq vaziyati, tug'ruq jarohatlari va chilla davri septik kasalliklari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	17,5 %	7 ta
4	Ginekologiya	Ginekologiya fani haqida tushuncha, ginekologiyada tekshirish usullari, jinsiy a'zolar kasalliklari, hayz faoliyatining buzilishi, jinsiy a'zolarining yallig'lanish va yuqumli kasalliklari haqida tushunchalarni, ayol jinsiy a'zolarining o'sma va o'sma oldi kasalliklari, o'tkir qorin sindromi, ginekologik bemorlarni davolash va parvarish qilishga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	22,5 %	9 ta
5	Reproduktiv salomatlik	Tug'ish yoshidagi ayollar salomatligini saqlash, reproduktiv salomatlik va uni asrashga oid tamoyillar, farzandlar oralig'ini saqlash, kontrasepsiyaning zamonaviy usullari, ona sutining mohiyati haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	5 %	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt me'yori

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Ya.N.Allayorov, F.Q.Asqarov, O.A.Ruziboyev "Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi" Toshkent "Yosh noshir avlodi" nashriyoti 2024-yil

2. Ya.N.Allayorov "Akusherlik va ginekologiya" Toshkent "O'zbekiston milliy entiklopediyasi" 2017 yil

3. Ya.N.Allayorov “Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik parvarishi” Toshkent 2012

4. Ya.N. Allayorov “Akusherlik” Toshkent “Davlat ilmiy nashriyoti ” 2007 yil

5. M.A.Fozilbekova , X.S.Zaynitdinova, “Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi” Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 2004 yil

6. M.F. Ziyayeva, G.Mavlonova “Ginekologiya” Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 2008 yil.

7. Ya.N.Allayorov “Reproduktiv salomatlik va kontratseptiv texnologiya” Toshkent “Istiqlol” nashriyoti 2005 yil

8. F.M.Ayupova, Yu.K.Jabborova “Ginekologiya” Toshkent “Mehridaryo” nashriyoti 2008 yil

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*